

MATBUOT VA O‘ZBEK SHOIRALARI SHE’RIYATI: TA’SIR VA TARAQQIYOT

Kamola ALLANAZAROVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
allanazarovakamola021@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677308>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida shakllana boshlagan o‘zbek ayol shoiralari ijodining rivojlanishida matbuotning o‘rni va ta’siri tahlil etilgan. Jadidchilik harakati, milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘un holda paydo bo‘lgan bu she’riyat namunalarida ayol obrazining yangicha talqini, ijtimoiy mavqeyini anglash, ma’naviy izlanishlar, shaxsiy va milliy o‘zlikni anglash kabi muhim g‘oyalar ilgari surilgan. Maqolada “Taraqqiy”, “Oyina”, “Yangi yo‘l”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” kabi matbuot nashrlarining roli, ular orqali chop etilgan shoiralarning she’rlari, estetik qarashlari tahliliy yondashuv asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. o‘zbek ayol shoiralari, matbuot, “Yangi yo‘l” jurnali, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, ijtimoiy ong, she’riy tafakkur, XX asr boshlaridagi adabiyot, ayol obrazi.

Annotation. This article analyzes the role and influence of the press in the development of Uzbek women poets' creativity in the early 20th century. The poetry samples, which emerged in harmony with the ideas of the Jadid movement, national awakening, and enlightenment, reflect a new interpretation of the female image, an awareness of social status, spiritual quests, and the discovery of personal and national identity. The article examines the role of periodicals such as *Taraqqiy*, *Oyina*, *Yangi Yo‘l*, *Sadoi Turkiston*, and *Sadoi Farg‘ona*, focusing on the poems published by women poets and their aesthetic views through an analytical approach.

Key words: Uzbek women poets, press, *Yangi Yo‘l* journal, Jadidism, enlightenment, social consciousness, poetic thinking, early 20th-century literature, female image.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda sodir bo‘lgan ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar milliy adabiy tafakkurda tub burilish yasadi. Jadidchilik harakati, yangi ma’rifiy g‘oyalar, matbuot vositalarining ko‘payishi o‘zbek adabiyotining yangilanishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, ilgari jamiyatning soyasida qolgan ayol qalamkashlarning adabiy maydonga chiqishi bu davrning muhim ijtimoiy hodisasi bo‘ldi. O‘zbek ayol shoiralari she’riyati matbuot orqali shakllandi va ommalashdi. Bu esa nafaqat adabiy jarayon, balki jamiyatda ayol mavqeyining o‘zgarishidan dalolat beruvchi ijtimoiy-falsafiy belgidir. XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, jadidchilik harakatining kuchayishi va matbuot taraqqiyoti adabiy muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda millatning ijtimoiy uyg‘onishida matbuot vositasi muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, ayollar ijodining jamoat tafakkurida o‘rin egallashi aynan shu jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq edi. Ayniqsa, o‘zbek ayol shoiralari tomonidan yaratilgan she’rlar matbuot sahifalarida e’lon qilinishi orqali nafaqat adabiyotdagi yangilanish, balki jamiyatdagi ayollar



mavqeining o‘zgarishi ham kuzatiladi. XX asrning birinchi choragida jadid matbuoti xalqni ma’rifat sari yetaklovchi asosiy vositalardan biriga aylandi. “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Ma’orif va o‘qitg‘uvchi”, “Hurshid”, “Shuhrat”, “Oyina”, “Yangi yo‘l” kabi nashrlarda siyosiy, ijtimoiy va adabiy maqolalar bilan bir qatorda ayol shoiralarning she’rlari ham chop etila boshlandi. Bu holat shoirlar uchun ijodiy faollik maydonini kengaytirgan bo‘lsa, matbuot esa jamiyatdagi o‘zgarishlarga adabiy ifoda berish vazifasini bajara boshladi. Shoirlar ijodida jamiyatning xotin-qizlarga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirish, ularning jamiyat hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari uchun ilm olishlariga imkon yaratish kabi davr muammolari she’riy shaklda ifodalab berilgan. Ular o‘z she’rlarida jamiyatda ayollarning ilm olish eng kata orzu-havaslarini bo‘lganligini ta’kidlaydi¹.

Shoirlar ijodi mundarijasini lirik, axloqiy-ma’rifiy, diniy-tasavvufiy, ilohiy ishq, agiografik, ijtimoiy-siyosiy ruhdagi asarlar tashkil etgani holda ilm-ma’rifat, olimlik va maktablarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, inson tarbiyasidagi ahamiyati talqiniga qaratilgan she’rlari XX asr boshlaridagi ma’rifatparvar shoirlar ijodiga yaqin turadi. Shoiralarning ijodida ma’rifatparvarlik ruhining ustuvorligi, xalqparvarlik, ayolga inson sifatida munosabatda bo‘lish, uni jamiyatning faol a’zosi sifatida ko‘rish, yangi avlod tarbiyasida ayolning o‘rnini yuksak baholash g‘oyalari asosiy o‘rinni egalladi. Ularning she’riyati orqali o‘zbek ayoli endilikda jamiyatda faqatgina ona yoki rafiqqa emas, balki ziyoli, ma’rifatparvar, teng huquqli shaxs sifatida namoyon bo‘la boshladi. “Yangi yo‘l” jurnalining faoliyati aynan ushbu yo‘nalishda alohida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Bu nashr matbuot sahnasida ayol shoirlar uchun nafaqat badiiy asarlarini e’lon qilish maydoni, balki ularning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi mafkuraviy minbar bo‘ldi. Unda chop etilgan she’rlar, maqolalar va publitsistik materiallar ayol shoiralarning ijodiy shakllanishida, o‘zlikni anglash jarayonida hal qiluvchi omil bo‘ldi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ayol shoirlar she’riyatida yangicha mazmun va shakllar, uslubiy izlanishlar, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy g‘oyalar uyg‘unlashgan bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotining XX asr boshlaridagi yangilanish jarayonida muhim bo‘g‘inga aylandi. Ayol qalamkashlarning she’riyati orqali milliy adabiy tafakkurda ijtimoiy ong, insoniylik, erkinlik, adolat, ma’rifat va tenglik kabi tushunchalar yangicha talqinda ifodalandi. Bu esa o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos bosqichni tashkil etadi.

XX asr boshlarida Nozimaxonim, Muazzamxon, Hakima, Muattarxon, Mukarramxon, Maxbuba Raximova, Mutriba, Mahzodabegim, Jahon Oyim, Hojar

¹ Jalolov T. O‘zbek shoiralari. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1980. – 238b.



G‘ulom qizi, X.Tillaxonova, Erk Chirchiqboyeva, Saodat Shamsiddin, S.Burnosheva, Oydin, Xosiyat Musino, Halima Shoumar qizi kabi shoirlar o‘zbek she‘riyatiga kirib keldilar. Ularning asarlarida ma‘rifat, ayol erkinligi, tenglik, millat uyg‘onishi kabi mavzular ilgari surilgan. Bunday yondashuv matbuot va adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o‘zaro ta‘sirini yaqqol ko‘rsatadi².

Ana shunday ijodkorlardan Nozimaxonim o‘z davrining taniqli shoirlaridan biri edi. Shoiraning she‘rlari 1900-yildan boshlab matbuotda e‘lon qilingan. Uning “Hasrat”, “Ming taassuf” “Afsus” kabi she‘rlarida taraqqiyot, ma‘rifat va madaniyat madh etilib, o‘z davrining ijtimoiy tengsizlik muammolari, istibdod keskin qoralanganligini ko‘rish mumkin. Shoiraning “Afsus” sherida 1905-yil voqealari qalamga olinib, o‘sha davr voqea-hodisalari hajv yo‘li bilan qalamga olinadi. Uning “Ilm va maorif borasida bir-ikki so‘z”, “Xotinlar huquqiga oid”, “Insonga qancha erk darkor” kabi she‘rlarida xotin-qizlarning ilm olishi kerakligi alohida ta‘kidlash bilan birgalikda, ayollarning insoniy huquqlarini ham talab qiladi. Shuningdek, shoira ijodida vatanparvarlik, yurtini ozod ko‘rish istagi barilla kuylanganligini ham ko‘rish mumkin. Nozimaxonim jamiyatda ayollarning o‘z o‘rni bo‘lishini orzu qiladi. Ularni bid‘at va hurofotdan holi qilib, diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy ilmlarni ham egallashlari kerakligini she‘rlarida bod-bod ta‘kidlaydi.

XX 20-yillaridagi adabiy hayotini yoritishga xizmat qilgan, mazkur davrning yetakchi nashrlaridan bo‘lgan “Yangi yo‘l” jurnali muhim hisoblanadi. “Yangi yo‘l” xotin-qizlar gazetasi hisoblanib, jurnalda xotin-qizlar erkinligi asosiy mavzu edi. “Yangi yo‘l” 1924-yil 1-yanvardan boshlab gazeta sifatida nashr etila boshladi. 3-soni ikki bet, 4-sonidan boshlab jurnalga aylanguncha to‘rt betlik qilib tayyorlangan. Gazetani chiqarish, materiallarini to‘plash, tartibga solish hamda chop ettirish ishlari bilan shoir Elbek shug‘ullanadi. Olim Shokiriy 1924-yildan bu ish bilan shug‘illangan. “Yangi yo‘l” gazetasi 1925-yil 22-oktabragacha gazeta sifatida, o‘sha yilning dekabridan jurnal sifatida nashr qilingan. Jurnalning 1-soni Samarqandda chop etiladi.

“Yangi yo‘l” jurnalida M.Rahim qizining “Adashmay ketamiz”, “Ko‘nglim”, “O‘zbek qizi tilidan”, “Ekinlik bo‘ylarida”; Yolqin (Saodat Rahmonova)ning “Qizil g‘uncha”, “O‘zbek qizi og‘zidan”, “Mening tilagim”, “Qo‘ying, yayrayin”, “Tilayman”; Oydin (Manzura Sobirova)ning “Chin hayit”, “Qo‘shchi xotini”; X. Tillaxon qizining “O‘rtog‘im ovozi”, Zarifa Saidnosirovaning “O‘rtog‘imga”, Sayyoraning “8-mart”, “Yatima”, “Qahramonlar”; Davronning “Erk”, “Ochilgan gul”, “Munavvaraxon”; Muazzamaning “Mart kuni” kabi she‘rlari bosilgan. Ushbu

² Qodirova M. XIX asr o‘zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri. –Toshkent: Fan, 1977. – 123 b.



she'rlarning asosiy mavzusi ham xotin-qizlar hisoblanadi. Ularda lirik qahramon tomonidan ayollarga kuylangan yoki lirik qahramonning o'zi xotin-qiz bo'lganligini ko'rish mumkin. Ushbu she'rlarda xotin-qizlar ozodligi, erki, ularning ta'lim olib jamiyat hayotida munosib o'rin egallashi kabi jihatlar aks etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov T. O'zbek shoiralari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. – B. 416.
2. Karimov N., Mamajonov S., Qosimov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. – B. 544.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi prof. Qosimov B.) – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – B. 280.
4. Qodirova M. XIX asr o'zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri. –Toshkent: Fan, 1977. – B. 184.
5. Qosimov B. Milliy uyg'onish: Jasorat, Ma'rifat, Fidoiyluk. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 400.